

## YANGI O'ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 174 (1235), 2024-yil 29-avgust, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz

JONAJON VATANIMIZNI BUTUN JAHONGA TARANNUM ETGAN  
MARD VA MATONATLI SPORTCHILARIMIZ SHARAFLANDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev

28-avgust kuni XXXIII yozgi Olimpiya o'yinlari g'olib va sovrindorlari bilan uchrashdi.



Tadbirda Milliy olimpiya qo'mitasi va sport federatsiyalari rahbarlari, murabbiylar, sportchilarning ota-onalari, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari ham qatnashdi.

Ma'lumki, ushbu Olimpiya o'yinlari 26-iyuldan 11-avgustgacha Fransiya poytaxti Parij shahrida bo'lib o'tdi.

Unda 200 dan ziyod davlatdan 11 ming nafarga yaqin eng kuchli atletlar qatnashdi. O'zbekiston 19 ta sport turi bo'yicha 90 nafar sportchi bilan ishtirok etdi. Bu nufuzli musobaqa biz uchun tom ma'noda rekordlar, mislsiz yutuqlarga boy bo'ldi.

Davlatimiz rahbari sportchilarni ushbu ulkan tarixiy g'alaba bilan tabriklab, nutq so'zladı.

— Sizlar g'oyat keskin bellashuvlarda yuksak jasorat va matonat ko'rsatib, 8 ta oltin, 2 ta kumush, 3 ta bronza medalni qo'lga kiritganingiz mamlakatimizning

taraqqiyot borasidagi yuksak salohiyatini ifoda etadigan yorqin natijadir. Bu tarixiy g'alaba Yangi O'zbekiston yoshlari qanday buyuk ishlarga qodir ekanini yana bir marta amalda namoyish etdi. Mamlakatimiz ishtirokchi davlatlar orasida umumjamoa hisobida o'n uchinchi o'rinni, Osiyo

qit'asida to'rtinchi o'rinni, turkiy va islom mamlakatlari hamda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi bo'yicha birinchi o'rinni egalladi. Barchamizni quvontirgan bu natijalar O'zbekiston tarixida ilgari hech qachon bo'lmagan yutuqlardir, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Buning uchun sportchi va murabbiylarga barcha sharoitlar yaratildi. Sportchilarni tayyorlashga yondashuv o'zgartirilib, izlanish va e'tibor kuchaydi.

Davomi 2-betda

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING  
PARIJDA BO'LIB O'TGAN XXXIII YOZGI OLIMPIYA O'YINLARIDA ISHTIROK ETGAN  
O'ZBEKISTON SPORT DELEGATSIYASI VAKILLARI BILAN UCHRASHUVDAGI NUTQI

Muhtaram vatandoshlar!  
Qadrlı sportchi o'g'il-qizlarim!  
Hurmatli murabbiy va mutaxassislar!  
Siz, azizlarni Fransiyaning Parij shahrida bo'lib o'tgan XXXIII yozgi Olimpiya o'yinlarida munosib ishtirok etib, erishgan ulkan tarixiy g'alabangiz bilan yana bir bor chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman.  
Dunyoning 200 dan ziyod davlatidan 11 ming nafarga yaqin eng mashhur sportchilar qatnashgan ushbu nufuzli sport anjumani biz uchun tom ma'noda rekordlar, mislsiz yutuqlarga boy bo'ldi.

Avvalo, mazkur Olimpiyada O'zbekiston birinchi marta eng ko'p tarkib bilan, ya'ni 19 ta sport turi bo'yicha 90 nafar sportchi bilan ishtirok etganini ta'kidlash lozim. Ayniqsa, ayollar kurashi, kamondan o'q otish, suvga sakrash, futbol kabi sport turlari bo'yicha sportchilarimiz ilk bor Olimpiya o'yinlarida qatnashganini alohida e'tirof etish kerak.  
Jahondagi nufuzli "Financial Times" nashrining ta'kidlashicha, Olimpiya medallari, mamlakatning sport olamida erishayotgan yutuqlari davlatning umumiy rivojlanish va insoniy taraqqiyot darajasini bildiradi.

Chindan ham sizlar g'oyat keskin bellashuvlarda yuksak jasorat va matonat ko'rsatib, 8 ta oltin, 2 ta kumush, 3 ta bronza medalni qo'lga kiritganingiz mamlakatimizning taraqqiyot borasidagi yuksak salohiyatini ifoda etadigan yorqin natijadir.  
Bu tarixiy g'alaba Yangi O'zbekiston yoshlari qanday buyuk ishlarga qodir ekanini yana bir marta amalda namoyish etdi. Mamlakatimiz ishtirokchi davlatlar orasida umumjamoa hisobida 13-o'rinni, Osiyo qit'asida 4-o'rinni, turkiy va islom mamlakatlari hamda Mustaqil Davlatlar

Hamdo'stligi bo'yicha 1-o'rinni egalladi. Barchamizni quvontirgan bu natijalar O'zbekiston tarixida ilgari hech qachon bo'lmagan yutuqlardir.  
Esingizda bo'lsa, biz Tokio Olimpiyadidan so'ng keyingi safar albatta jahonda kuchli o'n beshtalikka kiramiz, deb niyat qilgan edik. Lekin faqat niyatning o'zi bilan cheklanmasdan, avvalo, bu masalaga bo'lgan qarashimizni o'zgartirib, uch yil davomida qattiq va tinimsiz mehnat qildik, sportchilarimiz uchun barcha sharoitlarni yaratib, ana shunday yuksak marlamani zabt etdik.

Chin dildan intilib, astoydil harakat qilsak, qo'limizdan kelar ekan-ku!  
Albatta, siz, mohir sportchilar, tajribali murabbiy va mutaxassislar ilgari ham ko'plab nufuzli xalqaro musobaqalarda yuqori natijalarni qo'lga kiritgansiz. G'oliblik, g'alaba tuyg'usi sizlarga begona emas. Lekin Olimpiya o'yinlaridagi har bir yutuq, har bir yuksak natijaning o'rni, mohiyati va ahamiyati beqiyosdir.  
Chunki to'rt yilda bir marta o'tadigan bunday yirik xalqaro musobaqada dunyodagi har bir mamlakatning sport sohasiga

berayotgan e'tibori, millat va xalqning jismoniy va ma'naviy salohiyati yaqqol namoyon bo'ladi.  
Bunday ulkan arenada eng kuchli va mohir atletlar, zo'rlarning zo'ri ishtirok etadi. Ularning orasida g'olib chiqish, zafar qozonish uchun yillar davomida tinimsiz mashq qilish, bor kuchi va mahoratini safarbar etish, po'latday mustahkam iroda va matonat kerakligini hammamiz yaxshi bilamiz.

Davomi 2-betda

KO'P QIRRALI HAMKORLIKNI YANADA  
KENGAYTIRISHNING DOLZARB  
MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Shavkat Mirziyoyev 27-avgust kuni Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov bilan telefon orqali muloqot qildi.

O'zbekiston — Turkmaniston do'stlik, yaxshi qo'shniçilik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash, mamlakatlarimiz o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirishning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

Suhbat avvalida Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi davlatimiz rahbariga Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedovning samimiy salomini yetkazdi.

O'zbekiston va Turkmaniston yetakchilari ikki tomonlama aloqalar jadal

rivojlanib borayotganini katta mamnuniyat bilan qayd etdilar. Faol siyosiy muloqot va almashinuvlar davom etmoqda, o'zaro tovar ayirboshlash hajmi barqaror sur'atlar bilan o'smoqda, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida yetakchi korxonalarining kooperatsiyasi kuchaymoqda.

Muntazam ravishda qo'shma madaniy-gumanitar tadbirlar o'tkazilmoqda.

Suhbat chog'ida transport-kommunikatsiya va energetika sohaslarida qo'shma loyihalarni ilgari surishga alohida e'tibor qaratildi.

O'ZA

O'ZBEKISTON PREZIDENTI TURKIYA BILAN  
MADANIY-GUMANITAR ALOQALAR JADAL  
RIVOJLANAYOTGANINI MAMNUNIYAT  
BILAN TA'KIDLADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 28-avgust kuni Turkiya Respublikasi madaniyat va turizm vaziri Mehmet Nuri Ersoy boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Uchrashuvda yuqori martabali mehmon O'zbekiston yetakchisiga Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'ning samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O'zbekiston — Turkiya keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish, madaniy-gumanitar va sayyohlik sohaslaridagi hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Davlatlararo hamkorlikning bugungi yuksak darajasi alohida mamnuniyat bilan qayd etildi. O'zaro savdo va investitsiyalar, yuk tashish hajmi, ishbilanmonlik va

sayyohlik safarlari soni ortmoqda. Har hafta 90 dan ortiq aviaqatnov amalga oshirilmoqda.

Jadal madaniy-gumanitar almashinuvini davom ettirishga alohida e'tibor qaratildi.

Tegishli "yo'l xaritasi"ni tezroq qabul qilish, amaliy hamkorlikning institutsional mexanizmlarini ishga tushirish, milliy madaniyat va kino kunlarini o'tkazish, san'at, madaniy merosni muhofaza qilish, turizm salohiyatini yuzaga chiqarish va boshqa ustuvor yo'nalishlarda qo'shma loyihalarni ilgari surish muhimligi ta'kidlandi.

O'ZA

SANOAT TARMOQLARIDA SAMARADORLIKNI  
OSHIRISH MASALALARI KO'RIB CHIQILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 28-avgust kuni sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarish va samaradorlikni oshirish masalalari bo'yicha yig'ilish o'tkazdi.

Bu yil 7 oyda sanoat hajmi 7,1 foizga o'sib, 435 trillion so'mga yetdi. Elektr texnikasi, to'qimachilik, charm va avtomobil sanoatida yuqori o'sish bo'ldi. Joylarda 1,3 mingta yangi quvvatlar ishga tushirilib, qo'shimcha 40 trillion so'mlik ishlab chiqarish manbasi yaratildi.

Lekin hamma hudud va tarmoqda ham ishlar birdek emas. Xususan, 4 ta tumanda sanoat hajmi o'tgan yilgiga nisbatan kamaygan, 14 tasida esa o'sish 2 foizga ham yetmaydi.

Shu bois, joylarda sanoat bilan "korxonabay" ishlash tizimi yo'lga qo'yildi. Bosh vazir o'rinbosari — iqtisodiyot va moliya vaziri shu borada boshlangan ishlar va yil yakunigacha mo'ljallangan rejalar bo'yicha axborot berdi.

Qayd etilganidek, hududlardagi korxonalar o'rganilib, muammolari hal qilib borilmoqda. Jumladan, aylanma mablag', elektr va gaz ta'minoti, soliq masalalari bo'yicha ko'maklashilgan. Yil yakunigacha 30 trillion so'mlik qo'shimcha ishlab chiqarishni ta'minlash imkoniyati bor.

Buning uchun ishchilar sonidan kelib chiqib, korxonalariga mas'ullarni birlashtirish, tadbirkorlarni zamonaviy yondashuvlarga o'qitish borasida ko'rsatmalar berildi. Har bir viloyatning sanoatga ixtisoslashgan tumanlari bo'yicha dastur ishlab chiqarish vazifasi qo'yildi.

Yirik loyihalarni ishga tushirish, davlat xaridlarida mahalliy mahsulotlar ulushini ko'paytirish, eksport hajmini oshirish chora-tadbirlari muhokama qilindi.

O'ZA



# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING PARIJDA BO'LIB O'TGAN XXXIII YOZGI OLIMPIYA O'YINLARIDA ISHTIROK ETGAN O'ZBEKISTON SPORT DELEGATSIYASI VAKILLARI BILAN UCHRASHUVDAGI NUTQI

## Boshlanishi 1-betda

Shu ma'noda, sizlar xalqimizning chinakam qahramonlari, botir o'g'il-qizlari, Vatanimiz iftixorlarisiz. Barchamiz sizlar bilan g'ururlanamiz!

Hurmatli anjuman ishtirokchilari! Bo'lib o'tgan Olimpiada o'yinlarida yurtimiz vakillari bir qator rekord natijalarni qo'lga kiritdilar. Masalan, dzyudo bo'yicha bizda ilgari oltin medal bo'lmagan edi. Bu safar matonati dzyudochi qizimiz Diyora Keldiyorova tomonidan ushbu marra zabt etildi.

Ne-ne polvon qizlarni dog'da qoldirgan bu qahramon sportchimiz yozgi Olimpiya o'yinlari tarixida o'zbekistonlik ayollar o'rtasida birinchi marta oltin medalni qo'lga kiritdi. Shu tariqa Diyora yana bir rekord o'rnatdi. Samarqand viloyatining Pastdarg'om tumanida oddiy oilada tug'ilib voyaga yetgan bu sportchimizning nomi dunyoga doston bo'ldi. Mamlakatimiz va chet el matbuoti uni "Olamni mahliyo aylagan Diyora" deb ta'rifladi.

Yana bir jasur qizimiz — Svetlana Osipova esa taekvondo bo'yicha birinchi kumush medalni egallab, mamlakatimiz ayollar sporti tarixida yangi sahifa ochdi.

Shu tariqa sportchi qizlarimiz bitta Olimpiadada ilk bor 2 ta medalni qo'lga kiritib, yangi rekord o'rnatishga erishdilar. Mana shunday matonati, fidoyi qizlarimizning sport olamidagi jasorati har qanday yuksak tahsinga loyiqdir.

Ta'kidlash kerakki, O'zbekiston taekvondo bo'yicha birinchi marta Olimpiya o'yinlarida 2 ta medalni qo'lga kiritdi. Shu tariqa terma jamoamiz o'z tarixidagi eng yaxshi natijani qayd etdi va umumjamoa hisobida 3-o'rinni egalladi.

Ayniqsa, mohir sportchi o'g'lonimiz Ulug'bek Rashitov Olimpiya harakati solnomasida taekvondo bo'yicha eng yosh toifada ikki karra Olimpiya chempioni bo'ldi. Shu paytgacha dunyoda faqat 4 nafar sportchi shunday yuksak sharafiga sazovor bo'lgan edi. Ulug'bek esa beshinchi bo'lib, ularning safidan munosib va mustahkam joy egalladi.

U oyog'idan qattiq jarohat olganiga qaramay, shiddatli final jangida kuchli raqibga qarshi mardona jang qilib, g'olib qahramonga aylandi.

Mana, bizning qanday sheryurak o'g'lonlarimiz bor!

Shu bilan birga, bu galgi Olimpiya o'yinlarida O'zbekiston dzyudo bo'yicha

o'z tarixida eng ko'p medal olganini aytish o'rindidir.

Boks bo'yicha milliy terma jamoamiz oltin medallar soni bo'yicha mamlakatimiz tarixida Olimpiya o'yinlari rekordini yangiladi va umumjamoa hisobida 1-o'rinni egalladi. Erkaklar o'rtasida yettita oltin medalning beshtasini — e'tibor bering, beshtasi — yoki 71 foizini bizning bokschilarimiz qo'lga kiritdilar.

Bu — chinakam jasorat va bahodirlik namunasi emasmi?!

Bu — Yangi O'zbekiston tarixining chinakam yangi sahifalari emasmi?!

Fursatdan foydalanib, O'zbekiston iftixorlari — mohir bokschilarimiz Bahodir Jalolov, Hasanboy Do'smatov, Asadxo'ja Mo'yindinxo'yayev, Lazizbek Mullajonov, Abdumalik Xaloqovni ana shunday shonli yutuqlari bilan yana bir bor qizg'in tabriklayman.

Erkin kurash bo'yicha 12 yillik tanaffusdan so'ng yana Olimpiada oltin medalini qo'lga kiritdik. Bu ham tarixiy yutuqdir. Shu munosabat bilan mohir kurashchi Razambek Jamalovni ham samimiy qutlab, unga yangi zafarlar tilab qolamiz.

Mamlakatimiz jamoasi erishgan yutuqlarda kumush medal sohibi — og'ir atletikachi Akbar Jo'rayev, bronza medal sovrindorlari — erkin kurashchi G'ulomjon Abdullayev, tajribali dzyudochilarimiz Muzaffarbek To'raboyev, Alisher Yusupovning ham hisssasi katta bo'ldi.

Sportchilarimiz sharafiga Yevropaning qoq markazida — qadimiy Parij maydonida O'zbekiston madhiyasi 8 bor yangrab, mamlakatimiz bayrog'i 13 marta baland ko'tarildi.

Jonajon Vatanimizni butun dunyoga tarannum etgan mard va matonati yoshlarimizga shon-sharaflar bo'lsin!

Qadrlı yurtdoshlar! Bugun hayot, zamon keskin shiddat bilan o'zgarimoqda. Mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, mamlakatimiz barcha sohalarida dadil oldinga bormoqda.

Yangi O'zbekistonning bugungi taraqqiyotiga albatta mana shunday ulkan g'alabalar yarashadi. Shu ma'noda, sizlar Parijda erishgan natijalarimiz bilan o'z nomingizni milliy sportimiz tarixiga oltin harflar bilan muhrlab qo'ydingiz. Sizlar xalqimiz qalbidagi milliy g'urur tuyg'usini har tomonlama yuksaltirdingiz.

Eng muhimi, bunday porloq g'alabalar el-yurtimizni ruhlantiradi, yanada birlashtiradi. Ular yoshlarimiz uchun mardlik va matonat, ibrat va shon-sharaf maktabi bo'lib xizmat qiladi.

Hech shubhasiz, bu olamshumul yutuqlarda siz, aziz sportchilarimiz bilan birga talabchan va fidoyi ustoz-murabbiylar, mutaxassis va mutasaddilar, sizlarga chin dildan omad tilab turgan butun xalqimizning hisssasi ham beqiyosdir.

Hurmatli sportchi yoshlar! Shu kunlarda butun xalqimiz Mustaqillik bayramining ruhi va shukhi bilan yashamoqda. Sizlar erishgan yorqin g'alabalar ana shu eng ulug' va qadrlı bayramimizga tom ma'noda munosib sovg'a bo'ldi.

Albatta, hamisha keskin va murosasiz kurashlar ostida o'tadigan Olimpiya o'yinlarida ishtirok etish hammaga ham nasib etmaydi. Faqat eng shijoatli, eng irodali sportchilargina bunday sharafiga muvassaf bo'la oladi.

Shu ma'noda, Olimpiada o'yinlarida O'zbekiston sharafiga astoydil himoya qilgan, lekin ozgina omadi kelmagan sportchilarimizni ham samimiy tabriklaymiz. Xususan, badiiy gimnastika bo'yicha sportchi qizlarimiz Olimpiya o'yinlari tarixida birinchi marta g'olib bellashuvlarining final bosqichiga yetib bordilar. Ular dunyoning eng kuchli 8 ta jamoasi orasidan joy egallagan ham o'ziga xos muhim natija, albatta.

Shu bilan birga, mamlakatimiz tarixida birinchi marta Olimpiya maydonlarida to'p surgan navqiron futbolchilarimiz jahondagi eng kuchli jamoalarga qarshi munosib kurash olib borganini ta'kidlash lozim.

Olimpiada o'yinlari ko'plab sportchilarimiz uchun — garchi ular sovrinli o'rnlarga erishmagan bo'lsalar ham — o'ziga xos katta tajriba maktabi bo'ldi. Va barchamiz kelgusida ulardan yuksak natijalar kutishga haqlimiz.

Muhtaram anjuman ishtirokchilari! Fransiya maydonlarida erishilgan tarixiy yutuqlarda mamlakatimizda sport va jismoniy tarbiya sohasiga, Olimpiya harakatini ravnaq toptirishga berilayotgan ulkan e'tibor, yaratilgan samarali tizim va qulay sharoitlar, sportchi yoshlarimizni munosib rag'batlantirish ham katta rol o'ynaganini yana bir bor qayd etmoqchiman.

Fursatdan foydalanib, XXXIII yozgi Olimpiya o'yinlarida qatnashib, Vatanimiz sharafiga munosib himoya qilgan sportchilarimizga, ularning ustoz va murabbiylariga, O'zbekiston sport delegatsiyasining barcha a'zolari va rahbarlariga chin dildan minnatdorlik bildiraman!

Bugungi tantanamizda g'olib sportchilarimizning hurmatli ota-onalari ham

ishtirok etmoqda. Shunday pahlavon, vatanparvar farzandlarni el-yurtimizga tarbiyalab bergan siz, azizlarga alohida tashakkur aytmog'chim.

Hech qachon kam bo'lmanglar, katta rahmat sizlarga!

Qadrlı yurtdoshlar! Shu o'rinda barchamiz guvohi bo'lgan yana bir muhim jihati aytib o'tmog'chim.

Sportchilarimizning ulkan g'alabalari nafaqat xalqimizni, balki butun mintaqamizni ruhlantirib yubordi. Bunday yutuqlar xalqimizni birlashtiradi, har qanday sharoitda ham yelkama-yelka turishga chorlagani qalbimizni faxr-u g'ururga to'ldirdi.

Ayniqsa, boks bo'yicha o'zbek murabbiysi Akmal Hasanov qirg'izistonlik bokschilari Munarbek Seyitbek o'g'liga yordam berib, uni musobaqaning finaligacha olib borganini mintaqamizdagi do'stona munosabatning yorqin namunasi bo'ldi.

Ahli qo'shinchilik tamoyillariga qurilgan siyosatimiz bugun xalqimiz yuragiga ko'chganini ko'rish albatta quvonchlidir.

Hurmatli do'stlar!

Olimpiadachilarimizning buyuk g'alabasi butun xalqimiz qatori ijod ahlini — shoirlar va jurnalistlar, san'atkor va blogerlarni ham ruhlantirib yubordi. Sizlarning sha'ningizga atab o'nlab she'rlar, maqolalar yozildi, hatto chet ellarda ham qo'shiqlar kuylandi. Bu tarixiy voqea bag'ishlab, Yozuvchilar uyushmasi tomonidan "Olimp uzra hilpirar O'zbekiston bayrog'i" deb nomlangan yangi kitob kuni kecha nashrdan chiqarildi.

Bugun sizlar kabi qahramonlarimiz jasorat tarannum etilgan ushbu kitobni har biringizga esdalik sovg'asi sifatida taqdim etar ekanimiz, ijodkorlarimizga ham albatta rahmat aytmiz.

Qadrlı yurtdoshlar! Shu kunlarda barchamizning e'tiborimiz yana Fransiya, u yerda bo'lib o'tayotgan Paralimpiya o'yinlariga qaratilgan.

Ana shu nufuzli xalqaro musobaqalarda qizg'in kurash olib borayotgan mard va matonati sportchilarimizni Mustaqillik bayrami bilan chin dildan qutlab, barcha bellashuvlarda ularga ulkan kuch-g'ayrat, yutuq va omadlar tilaymiz.

Ularga ham sizlarning yo'lingizni, baxtingizni bersin!

Hurmatli anjuman qatnashchilari! Albatta, Parijdagi natijalarimizni chuqur tahlil qilib, ulardan zarur xulosa va saboqlar chiqargan holda, 2028-yili Los-Anjelesda bo'ladigan navbatdagi olimpiadaga tayyorgarlikni hozirdan boshlashimiz kerak.

Kelgusi Olimpiadada kuchli o'nlikka kirish bosh maqsadimiz bo'ladi. Masalan, Parij Olimpiadasida 32 ta sport turi bo'yicha 329 ta medallar jamlanmasi uchun kurash olib borildi. E'tibor bering, suzish, suvga sakrash, sinxron suzish, suv polosida — 49 ta, yengil atletika bo'yicha — 48 ta, baydarka va kanoeda eshkak eshish — 30 ta, velosport turlari bo'yicha — 22 ta, o'q otish va kamondan otishda — 20 ta, gimnastikada — 14 ta medallar sovrin sifatida qo'yilgan edi.

Ushbu sport turlarining barchasi bo'yicha bizda sport federatsiyalari ham, musobaqalarga tayyorgarlik ko'rish uchun tegishli baza ham bor. Eng muhimi, bizda bu borada iqtidorli sportchilar ham yetarli.

Lekin yengil atletikadan atigi 5 ta, suv sporti turlaridan bor-yo'g'i 4 ta litsenziya olganimiz, tennis, stol tennis, badminton, o'q otish kabi yo'nalishlarda birorta sportchimiz Olimpiadaga bormagani bizni chuqur o'ylantirishi kerak.

Parij natijalari bo'yicha sportchilarimizga hech kimning e'tiroz bildirishga haqqi yo'q. Ularning barchasi qo'lidan kelganicha harakat qildi va biz ulardan albatta minnatdormiz.

Asosiy e'tiroz — sport federatsiyalariga! Ayniqsa, chim ustida xokkey, basketbol, gandbol, regbi, suv polosi kabi jamoaviy sport turlari bo'yicha natijalarimiz biz kutgandek bo'lmadi. Yunon-rum kurashi, ot sporti, zamonaviy beshkurash, triatlon, qilichbozlik, eshkak eshish, velosport kabi sport turlari bo'yicha ham hali ishga solinmagan imkoniyatlarimiz juda ko'p.

Oldimizda to'rt yil vaqt bor. O'ylaymanki, bugun faoliyati tanqid qilingan sport federatsiyalari rahbarlari o'zlari uchun xulosa qilib, Los-Anjelesda bo'lib o'tadigan Olimpiadaga munosib tayyorgarlik ko'radilar.

Bunga erishish uchun har bir olimpiya sport turini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratamiz. Shu maqsadda, kelgusi to'rt yilda sportchilarni tayyorlash bo'yicha katta dasturlar qabul qilinadi.

Har bir yo'nalishda sport meditsinasi, farmakologiyasi, diyetologiyasi, psixologiyasi va muhandisligi bo'yicha chet eldan malakali mutaxassislar jalb etiladi. Bu borada "Olimpiya shaharchasi"da musobaqalar va o'quv-mashg'ulotlarni ilg'or xorijiy tajribalar asosida o'tkazish bo'yicha alohida tizim yaratiladi.

Bahodir Jalolov, Oksana Chusovitina maktablari kabi ixtisoslashgan sport muassasalari har bir hududda, har bir sport yo'nalishi bo'yicha tashkil qilinadi. Bundan

tashqari, joylarda, ayniqsa, mahallalarda yangi-yangi iqtidorlarni kashf qilish, ularni manzilli seleksiya asosida xalqaro musobaqalarga tayyorlash bo'yicha ham alohida dastur joriy etiladi.

Bir so'z bilan aytganda, O'zbekiston — Olimpiada o'yinlarida nafaqat kurashchi-pahlavonlar yurti, balki chavandoz va yuguruvchilar, mergan va qilichbozlar, gimnast va suzuvchilar, futbolchi va tennischilar, marafonchi va velosportchilar mamlakati sifatida ham munosib ishtirok etishi kerak.

Buning uchun mamlakatimizdagi zarur sport infratuzilmasiga ega bo'lgan 15 ta Olimpiya va paralimpiyaga tayyorlash markazi, 6 ta respublika oliy sport mahorati maktabi, 56 ta ixtisoslashtirilgan sport maktabiga ana shu yo'nalishlarda yuqori mahoratli sportchilarni tarbiyalagan mahalliy va xorijiy trenerlarni birlashtirish lozim.

Bosh vazir Abdulla Aripov, sport vaziri Adham Ikromov sport federatsiyalari rahbarlari bilan birga, bir oy ichida oylik rejalarni qog'ozga tushirib, har tomonlama asoslangan takliflarini kiritisin.

Yana bir muhim masala. Ommaviy sportni rivojlantirish milliy olimpiya harakatining ajralmas bir qismi bo'lishi kerak. Shu bois, bir oy muddatda mamlakatimizda ommaviy sportni yanada rivojlantirish haqida takliflar ishlab chiqish vazifasi topshiriladi.

Ishonchim komil, barcha chora-tadbirlarni aniq hisob-kitob va puxta tayyorgarlik bilan amalga oshirsak, keyingi Olimpiada o'yinlarida ko'zlagan maqsadimizga albatta yetamiz.

Qadrlı vatandoshlar! Kuni kecha XXXIII yozgi Olimpiada o'yinlarining g'olib va sovrindorlari, ularning murabbiylari hamda sport delegatsiyamiz a'zolaridan bir guruhini mukofotlash haqida farmonga imzo chekdim.

Barchangizni Parij Olimpiadasida erishgan ulkan natijalariniz va yuksak davlat mukofotlari bilan yana bir bor chin qalbidan tabriklayman.

Sizlarga sihat-salomatlik, oilaviy baxt, kelgusi faoliyatingizda yanada ulkan zafarlar tilayman.

Sport olamida doimo yangi-yangi yutuqlarga erishib, xalqimizni xursand qilishdan hech qachon charchamang, tolmang!

Mana shunday tarixiy yutuqlarimiz bardavom bo'lsin!

Jonajon Vatanimiz yanada gullab-yashinasin!

Hamisha sog'-omon bo'linglar, katta rahmat sizlarga!

# JONAJON VATANIMIZNI BUTUN JAHONGA TARANNUM ETGAN MARD VA MATONATLI SPORTCHILARIMIZ SHARAFLANDI

## Boshlanishi 1-betda

2021-yil avgustda bo'lib o'tgan shunday uchrashuvda kelgusi Olimpiadada kuchli o'n beshta davlat qatoriga kirish maqsad qilib qo'yilgan edi. Bu sharaflar bilan uddalab, mamlakatimiz dunyoda o'n uchinchi o'rinni egalladi.

Britaniyaning "Financial Times" nashrida yozilishicha, Olimpiya medallari, mamlakatning sport olamida erishayotgan yutuqlari davlatning umumiy rivojlanish va insoniy taraqqiyot darajasini bildiradi.

Haqiqatan ham Olimpiada o'yinlaridagi har bir natijaning o'z mohiyati va ahamiyati beqiyosdir. Chunki to'rt yilda bir marta o'tadigan bu yirik xalqaro musobaqada zo'rlarning zo'ri qatnashadi, u mamlakatning sport sohasiga e'tibori, xalqning jismoniy va ma'naviy salohiyatini namoyon etadi.

Musobaqada ilk oltin medalni Diyora Keldiyorova qo'lga kiritdi. Bu ham dzyudo bo'yicha, ham ayollar o'rtasida yurtimizning Olimpiadadagi birinchi oltin medal bo'lib tarixga kirdi.

Yana bir jasur qiz — Svetlana Osipova esa taekvondo bo'yicha birinchi kumush medalni egallab, ayollar sporti tarixida yangi sahifa ochdi.

O'zbekiston taekvondo bo'yicha birinchi marta Olimpiya o'yinlarida 2 ta medalni qo'lga kiritdi. Terma jamoamiz o'z tarixidagi eng yaxshi natijani qayd etib, umumjamoa hisobida uchinchi o'rinni egalladi. Ulug'bek Rashitov Olimpiya harakati solnomasida taekvondo bo'yicha eng yosh toifada ikki karra Olimpiya chempioni bo'ldi.

O'zbekiston dzyudo bo'yicha o'z tarixida Olimpiadada eng ko'p medal oldi. Erkin kurash

bo'yicha o'n ikki yillik tanaffusdan so'ng yana oltin medal qo'lga kiritildi.

Boks bo'yicha milliy terma jamoamiz oltin medallar soni bo'yicha mamlakatimiz tarixida Olimpiya o'yinlari rekordini yangiladi va umumjamoa hisobida birinchi o'rinni egalladi. Erkaklar o'rtasida yettita oltin medalning beshtasini bizning bokschilarimiz oldi.

Umuman, Yevropaning qoq markazida sportchilarimiz sharafiga O'zbekiston madhiyasi 8 karra yangrab, mamlakatimiz bayrog'i 13 marta baland ko'tarildi.

Prezident bu yuksak natijalar xalqimizga katta g'urur bag'ishlaganini ta'kidlab, sportchilarni olqishladi: — Shu kunlarda butun xalqimiz Mustaqillik bayramining ruhi va shukhi bilan yashamoqda. Sizlar erishgan yorqin g'alabalar eng ulug' va qadrlı bayramimizga munosib sovg'a bo'ldi. Sizlarning qahramonligingiz yoshlarimizga, chekka joylardagi sportsevar bolalarga kuch-qudrat berdi. Butun xalqimizni g'ururlantirdi, yanada birlashtirdi. Sharaflar sizlarga, rahmat sizlarga!

Davlat rahbari sportchilarga, ularning ustoz va murabbiylariga, sport delegatsiyasi a'zolariga

Zarur sport infratuzilmasiga ega bo'lgan 15 ta Olimpiya va paralimpiyaga tayyorlash markazi, 6 ta Respublika oliy sport mahorati maktabi, 56 ta ixtisoslashtirilgan sport maktabiga mahalliy va xorijiy murabbiylar birlashtiriladi.

minnatdorchilik bildirdi. Shu kunlarda Paralimpiya o'yinlarida qatnashayotgan matonati sportchilarimizga kuch-g'ayrat va omad tiladi.



Suv sporti turlari, yengil atletika, velosport, o'q otish va kamondan otish, gimnastika bo'yicha federatsiyalar, sharoit va iqtidorli sportchilar borligi, lekin natijalar kamligi ko'rsatib o'tildi. Chim ustida xokkey, basketbol, gandbol, regbi, suv polosi kabi jamoaviy sport turlari yetarlicha rivojlanmagan. Yunon-rum kurashi, ot sporti, zamonaviy beshkurash, triatlon, qilichbozlik, eshkak eshish, velosport kabi sport turlari bo'yicha ham hali ishga solinmagan imkoniyatlar ko'p.

Mazkur sport federatsiyalari tegishli xulosa qilib, kelgusi Olimpiadagacha katta tayyorgarlik ko'rish kerakligi ta'kidlandi.

Uchrashuvda 2028-yili Los-Anjelesda bo'ladigan Olimpiya o'yinlariga tayyorgarlik masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi.

## AKADEMIK Behzod YO'LDOSHEV



nizatsiya qilish, akademiya tuzilmasini takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot muassasalarini rivojlantirishga rahbarlik qildi.

Yorqin iste'dod va chuqur bilimga ega bo'lgan B.Yo'ldoshev uzoq yillik ilmiy faoliyatini davomida yadro fizikasi va elementar zarrachalar fizikasi bo'yicha ko'plab kashfiyotlar muallifi sifatida tanildi. Olimning 400 dan ortiq ilmiy ishlari, monografiyalari, yadro tadqiqotlari bo'yicha fundamental tadqiqotlari nufuzli xorijiy nashrlarda chop etilgan. Uning rahbarligida o'nlab fan doktorlari va fan nomzodlari tayyorlandi.

U Xalqaro atom energiyasi agentligida fan bo'yicha maslahatchi, AQSHning Vashington va Stenford universitetlari, Birlashgan yadro tadqiqotlari instituti professori lavozimlarida ishlagan. Bir qator rivojlangan mamlakatlardagi ilmiy laboratoriyalarda xalqaro tadqiqotchilar guruhlari tomonidan bajarilgan yirik eksperimentlar hamda yadroviy xavfsizlikni mustahkamlash va yadro qurollarini tarqatmaslik bo'yicha amaliy yechimlar ishlab chiqish yuzasidan yirik loyihalarga rahbarlik qilgan.

B.Yo'ldoshev yurtimizda milliy parlamentarizmni rivojlantirishga munosib hissa qo'shdi. 2000-2004-yillarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputati, keyingi vaqtda Oliy Majlis Senati a'zosi sifatida samarali faoliyat olib borib, ilm-fan sohasini rivojlantirishga oid qonun loyihalarini ishlab chiqish va qabul qilishda o'zining jonkuyarligi va fidoyiligini namoyon etdi.

Akademik B.Yo'ldoshevning mamlakatimiz ilm-fanini rivojlantirish borasidagi xizmatlari davlatimiz tomonidan munosib taqdirlandi. U "O'zbekiston Respublikasi fan arbobi" faxriy unvoni, "Fidokorona xizmatlari uchun" va "Mehnat shuhrati" ordenlari, Beruniy nomidagi davlat mukofoti, "Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi" unvoni bilan mukofotlangan edi.

Fidoyi olim, mehribon ustoz, kamtarin inson Behzod Yo'ldoshevning xotirasi qalblarimizda hamisha saqlanib qoladi.

SH.MIRZIYOYEV, T.NORBOYEVA, N.ISMOILOV, A.ARIPOV, SH.AYUPOV

## Yangicha yondashuvlar

### TO'RAQO'RG'ON TAJRIBASI

TEJAMKOR TEKNOLOGIYALAR SHOLICHILIKDA QANDAY SAMARA BERISHINI KO'RSATMOQDA

Markaziy Osiyo mintaqasida qishloq xo'jaligida har yili bir gektar yerni sug'orish uchun 12,5 ming kub metr suv sarflanadi. Bu ko'pmi yoki kam?

**Farhod QO'ZIYEV,**  
Qishloq xo'jaligi vazirligining  
Zamonaviy sug'orish  
agrotexnologiyalarini joriy qilish  
boshqarmasi boshlig'i

Suv resurslari tobora cheklanib va taqchillashib borayotgan hozirgi sharoitda ekinlarni sug'orish uchun qancha suv sarflanayotganini tahlil qilishdan ko'ra, uni asrab-avaylashga bo'lgan e'tiborni kuchaytirishga qaratilgan ishlarni jadallashtrish maqsadga muvofiq. Binobarin, bugun zarur choralar ko'rilmasa ertaga suv yetishmovchiligi barchaga zarar keltirishi mumkin. E'tiborsiz, mamlakatimizda ham, mintaqada ham mazkur yo'nalishdagi ishlarga jiddiy e'tibor qaratilmog'da. Qishloq xo'jaligi tarmoqlariga innovatsion loyihalar izchil kirib kelyapti. O'zbekiston bu borada muayyan tajribaga ega.

Keyingi yillarda Turkiya, Xitoy, Avstraliya, AQSH kabi davlatlarning ilg'or tajribalari asosida ekinlarni tomchilatib, yomg'irli va diskret kabi usullarda sug'orish, shuningdek, yerlarni lazerli tekislash texnologiyalari joriy qilindi. 2016-yilgacha suvni tejovchi texnologiyalar qo'llanilgan maydon 18,9 ming gektarni tashkil etgan, bugungi kungacha kelib esa 1,8 million gektarga yetkazilgan shunday sa'y-harakatlar samarasidir. Ushbu yo'nalishdagi ishlar tizimli tus olib, izchil davom ettirilayotgani esa yanada diqqatga sazovor. Davlatimiz rahbarining Xitoy Xalq Respublikasiga davlat tashrif davomida Qishloq xo'jaligi vazirligi ushbu davlatning "Xinjiang Tianye group" kompaniyasi bilan hamkorlikda tomchilatib sug'orish texnologiyalarini qo'llash va buning uchun zarur butlovchi qismlarni ishlab chiqarishni tashkil etish yuzasidan kelishuvga erishgan edi.

"Xinjiang Tianye group" Xitoyning qishloq xo'jaligida zamonaviy sug'orish texnologiyalarini

ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi kompaniyalardan biri hisoblanadi. Shuningdek, uning Shinjon provinsiyasida joylashgani ham biz uchun qulay. Chunki Shinjonning tuproq-iqlim sharoiti biznikiga o'xshash. Qolaversa, Shinjonda, umuman, Xitoyda sholi ko'p yetishtiriladi. Sholi esa eng ko'p suv talab qiladigan ekinlardan biri hisoblanadi. Joriy yilda respublikamiz bo'yicha jami 137,2 ming gektar yerga, shundan 39,6 ming gektarga asosiy va 97,6 ming gektarga taktoriy ekin sifatida sholi parvarishlanayotganini inobatga olsak, bu hamkorlik soha vakillari uchun ayni muddao.

Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumanidagi "Komilov Tursunboy" fermer xo'jaligida joriy yilda g'alladan bo'shagan 72 gektar yerga taktoriy ekin sifatida sholi ekilib, ushbu maydonga Shinjon tajribasi asosida to'liq tomchilatib sug'orish texnologiyasi joriy qilindi.

Ekin maydonini sug'orish 5 gektardan konturlarga bo'lindi. Har bir sug'orish konturini 1 marotaba sug'orish uchun o'rta 12 soat vaqt hamda 3700-4000 metr kub suv sarflanyapti. Bunda bir gektar maydon uchun bir marotaba sug'orish o'rta 700-800 metr kubni tashkil etmoqda. Ya'ni an'anaviy (bostirib) sug'orishga nisbatan 68 foiz kam suv talab etilyapti.

Mavsum davomida ushbu sholi maydonlari Xitoy tomchilatib sug'orish texnologiyasi orqali sug'orilganda jami 11 ming — 11,5 ming metr kub, ya'ni an'anaviy (bostirib) sug'orishga nisbatan 62 foiz kam suv sarflanishi hisob-kitob qilindi. Vaholanki, 1 gektar sholizorni mavsumda an'anaviy usulda bostirib sug'orilganda 24-26 ming metr kub suv talab etiladi.

Bundan tashqari, sholi maydonlari begona o'tga qarshi 1 marotaba kimyoviy ishlov berilgani o'z natijasini berib, begona o'tlar to'liq yo'qolgan. Kimyoviy o'g'it sarfi ham 50 foizga qisqargan.

Tajriba va hamkorlik o'zini oqlamoqda, uni butun respublikamiz bo'yicha qo'llash qanchadan qancha mablag' va ishchi kuchini tejashga, sholi maydonlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

## Zurab POLOLIKASHVILI:

### "BIZ O'ZBEKISTONNI DUNYO BILAN BOG'LAYDIGAN, UNING ABADIY GO'ZALLIGI VA ILIQLIGI SAQLANIB QOLISHINI TA'MINLAYDIGAN KO'PRIKLARNI BIRGALIKDA QURA OLAMIZ"

"BMT Turizm" tashkiloti (Jahon turizm tashkiloti) bosh kotibi Zurab Pololikashvili "Dunyo" axborot agentligiga intervyu berdi. Unda O'zbekistonning sayyohlik salohiyati, tashkilot bilan mamlakatimiz o'rtasidagi hamkorlikni yanada jadallashtrish istiqbollari haqidagi fikrlarini bildirdi.

— Subhatimiz O'zbekiston mustaqilligining 33 yilligi arafasida bo'lib o'tmoqda. Mustaqil taraqqiyot yillarida mamlakatimiz katta yo'lni bosib o'tdi, ayniqsa, keyingi yillarda barcha sohalarni modernizatsiya qilish bo'yicha ham, ijtimoiy taraqqiyotda ham yuksak natijalarga erishildi. O'zbekiston turizm industriyasi rivojlanish darajasini, yurtimiz sayyohlik salohiyatini qanday baholaysiz?

— Ana shunday qutlug' sana arafasida mamlakatda, ayniqsa, turizmni rivojlantirish borasida erishilgan salmoqli muvaffaqiyatlar alohida ta'kidlash joiz. So'nggi bir necha yil ichida O'zbekiston o'zining boy madaniy merosini zamonaviy qulayliklar bilan uyg'unlashtirib, muhim sayyohlik maskaniga aylandi. Infratuzilma, mehmonxona xizmatlari va marketing sohasiga yo'naltirilgan yirik investitsiyalar mamlakatimiz o'ziga xos diqqatga sazovor joylari, xususan, Ipak yo'lidagi Samarqand va Buxoro kabi tarixiy shaharlar e'tirofini sezilarli darajada oshirdi. Bu sa'y-harakatlar nafaqat tashrif buyuruvchilarni tajribasini yaxshilashga, balki O'zbekistonning rang-barang madaniy merosini chuqurroq tushunishga ham hissa qo'shadi.

O'zbekistonga kelayotgan xorijiy sayyohlar sonining 2016-yildagi qariyb 2 milliondan 2023-yilda 6,6 millionga ko'paygani 2017-yildan buyon amalga oshirilayotgan islohotlar muvaffaqiyatidan dalolatdir.

O'zbekistonda UNESCOning Jahon madaniy merosi ro'yxatiga kirgan ko'plab tarixiy obyektlar mavjud, shuningdek, respublika ulkan, ammo hozircha to'liq foydalanilmagan sayyohlik salohiyatiga ega. Mamlakatning Qizilqum cho'ldan tortib, ulug'vor Tyanshan tog'larigacha bo'lgan hayratlanarli manzaralari o'zbek xalqining samimiyligi va mehmondo'stligi bilan birga tashrif buyuruvchilarga o'ziga xos taassurot baxsh etadi. Sayyohlar unutilmas taassurotlar va ajoyib his-tuyg'ular olishga intilishini hisobga olib, O'zbekiston boy an'analari va betakror tabiiy go'zalligi bilan o'ziga xos ustunlikka ega. Barqaror rivojlanish tamoyillariga sodiq qolish va mahalliy xalq vakillari ishtirokini ta'minlash orqali O'zbekiston yanada ko'proq sayohatchilarni jalb qilishi va barcha fuqarolar uchun manfaatli rivojlanayotgan turizm sektorini taqdim etishi mumkin.

"BMT Turizm" va O'zbekiston o'rtasidagi davomiy hamkorlik barqaror amaliy ishlar natijasida mamlakatning sayyohlik salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Birgalikdagi sa'y-harakatlarimiz O'zbekistonning turizm imkoniyatlarini ochishda asosiy yo'nalish hisoblangan jamoat turizmi, ekoturizm va mehmondo'stlikni o'qitish dasturlarini rivojlantirishga qaratilgan. Dunyoda eshiklarini ochgan O'zbekiston sayyohlarni Buyuk ipak yo'lining maftunkor shaharlaridan tortib jo'shqin milliy an'analar va mazali taomlarigacha bo'lgan noyob tarixiy va madaniy merosi bilan yaqindan tanishtirishga taklif qiladi. Shubha yo'qki, O'zbekiston Markaziy Osiyoning asosiy sayyohlik yo'nalishiga aylanish yo'lida muhim bosqichni bosib o'tmoqda. Bu ham mahalliy aholi, ham xalqaro sayohatchilar uchun unutilmas imkoniyatlarni taqdim etishi shubhasiz.

— O'zbekiston boy tarixiy-madaniy merosi, zamonaviy taraqqiyoti, an'analari va muhiti bilan xorijliklarni yaqindan



tanishtirish maqsadida dunyoda sayyohlik eshiklarini ochdi. Mamlakatimiz bilan yo'nalishda hamkorlik qanday rivojlanmoqda? Ushbu jabhadagi masalalar, istiqbolli qo'shma loyihalar haqida ma'lumot bersangiz.

— O'zbekiston sayyohlarni boy tarixiy va madaniy merosi, zamonaviy yutuqlari va jo'shqin an'analari bilan tanishishga chorlayapti. O'zbekiston bilan hamkorligimiz samarali bo'lmoqda va mustarak maqsadimiz mamlakatni yetakchi sayyohlik yo'nalishlaridan biri sifatida ko'rsatishdan iborat.

Yaqinda Samarqand shahrida "BMT Turizm" bilan birgalikda tashkil etilgan Xalqaro turizm akademiyasi ochilishi o'zaro munosabatlarimizda muhim voqea bo'ldi. 2023-yil oktyabr oyida bo'lib o'tgan Bosh Assambleyada ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishlari vaziri Aziz Abduhakimov bilan birga akademiya tashrif buyurish sharafiga muayassar bo'ldim. Ushbu tashabbus turizm sohasida ta'lim va salohiyatni rivojlantirish, mahalliy mutaxassislar O'zbekistonning noyob takliflarini boshqarish va targ'ib qilish uchun zarur ko'nikmalarga ega bo'lishini ta'minlashga sodiq qolishimizni ifodalaydi. Hozir Samarqand shahrida "Buyuk ipak yo'lida turizm" ofisini tashkil etish ustida ish olib boryapmiz.

O'zbekistonga kelayotgan xorijiy sayyohlar sonining 2016-yildagi qariyb 2 milliondan 2023-yilda 6,6 millionga ko'paygani 2017-yildan buyon amalga oshirilayotgan islohotlar muvaffaqiyatidan dalolatdir.

Shu bilan birga, "Turizm biznes yuritish: O'zbekistonga investitsiya kiritish" qo'llanmasini taqdim etdik. Ushbu qo'llanmada jadallashtrilgan iqtisodiy islohotlar tufayli Osiyoning asosiy sayyohlik yo'nalishiga aylanish yo'lida muhim bosqichni bosib o'tmoqda. Bu ham mahalliy aholi, ham xalqaro sayohatchilar uchun unutilmas imkoniyatlarni taqdim etishi shubhasiz.

— O'zbekiston boy tarixiy-madaniy merosi, zamonaviy taraqqiyoti, an'analari va muhiti bilan xorijliklarni yaqindan

liberalashtirish, soliq va bojxona siyosatidagi asosiy islohotlar qayd etilgan. Shuningdek, qo'llanmada ijtimoiy va iqtisodiy jihatlar, jumladan, o'sib borayotgan va ma'lumotli aholi soni, iqtisodiyotning tarmoqlar bo'yicha tuzilishi va asosiy eksport shirkatlarining tahlili tavsiflanadi. Ushbu qo'llanma potensial investorlar uchun muhim vosita bo'lib, O'zbekistonning turizm sohasidagi ulkan imkoniyatlarini namoyish etadi va barqaror investitsiya amaliyotini rag'batlantiradi.

O'zbekistonning tarixiy merosiga qiziqish ortib borayotganini hisobga olib, "BMT Turizm" tashkiloti sohada barqaror amaliyotni ilgari suruvchi tashabbuslarni faol qo'llab-quvvatlaydi. Biz O'zbekistonning noyob madaniy boyliklarini iqtisodiy o'sishga yo'naltirilgan holda birlashtirgan kompleks strategiyalarni ishlab chiqish tarafdorimiz. Butun dunyodan sayyohlarni jalb qilish uchun uning qadimiy yodgorliklari, boy merosi va milliy an'analaridan foydalangan holda mamlakatni tarixiy Ipak yo'lining asosiy yo'nalishi sifatida joylashtirish bo'yicha muvaffaqshatirgan sa'y-harakatlar olib borilmoqda.

O'zbekiston va "BMT Turizm"ning qo'shma kun tartibida mintaqaning madaniy yaxlitligi va ekologik barqarorligini saqlab qolgan holda turizm sifatini oshirish muhimligi ta'kidlangan. Imkoniyatlarini oshirish bo'yicha tashabbuslarga alohida e'tibor qaratish ham muhim ahamiyatga ega. Bizning maqsadimiz mahalliy turizm bozori ishtirokchilarini resurslarni samarali boshqarish uchun zarur vositalar va bilimlar bilan ta'minlashdan iborat. Biz birgalikda nafaqat sayyohlar ehtiyojlarini qondiradigan, balki mahalliy aholi vakillarini ham iqtisodiy, ham



lar marketing va jalb qilish uchun yangi platformalarni taqdim etish orqali turizm landschaftini o'zgartirmoqda. Ushbu qadamlar O'zbekistonga o'zining noyob sayohat tajribasiga qiziquvchi yosh auditoriyaga qaratilgan jahon miqyosida ko'rinishini oshirish uchun texnologiyalardan foydalanish imkoniyatini taqdim etadi. Bu boradagi xalqaro hamkorlik bilan bilim almashinuvi va texnologiyalar transferini osonlashtirishi mumkin, pirovardida O'zbekistondagi turizm tajribasini boyitib, uning madaniy boyligi va zamonaviy ambitsiyalarini ta'kidlaydi.

— O'zbekiston mustaqilligi kuni bayrami arafasida tilaklarimiz.

O'zbekiston mustaqilligi kuni munosabati bilan mamlakat xalqiga eng samimiy tilaklarimizni bildirmoqchimiz. Bu kun O'zbekiston uchun taraqqiyot, yuksalish va imkoniyatlar ramzi bo'lib, nafaqat o'tgan o'ttiz uch yillikdagi yutuqlarni nishonlash, balki farovon kelajakka intilish onlaridir. O'zbekiston xalqiga modernizatsiya va taraqqiyot yo'lida dadil intilib, o'zining boy merosini qadrlashda davom etishini tilayman. An'ana va innovatsiyalarning o'ziga xos uyg'unligi, shubhasiz, yangi O'zbekistonni jahon turizm bozorining muhim ishtirokchisiga aylantiradi.

O'zbekiston olg'a intilib borar ekan, bundan keyin ham jahon hamjamiyati bilan munosabatlarda hamjihatlik va hamkorlik ruhi hukm surishiga ishonch bildiramiz. Mustaqillik bayrami har bir fuqaroni mamlakatda gullab-yashnayotgan turizm sohasini rivojlantirishga hissa qo'shishga ruhlantirsin. Biz birgalikda O'zbekistonni dunyo bilan bog'laydigan, uning abadiy noyob imkoniyatlarini ta'minlaydigan ko'priklar buniyod etamiz va sayyoramizning barcha nuqtalaridan sayyohlarni jalb etishda davom etamiz.

— Samarqandda bo'lib o'tgan "BMT Turizm" Bosh Assambleyasining 25-sessiyasi nafaqat O'zbekiston, balki butun BMT tizimi uchun muhim voqea bo'ldi. Jahon miqyosida ahamiyati tobora ortib borayotgan mintaqada bunday muhim tadbirga mezbonlik qilish O'zbekistonga boy madaniy merosini namoyish etish va xalqaro diplomatiyada kuchli ishtirok etishda noyob imkoniyat yaratadi. Bu mamlakatning global masalalar, jumladan, iqtisodiy taraqqiyot, madaniy almashinuvi va tinchlikni ta'minlashning muhim omili bo'lgan turizm bilan shug'ullanishga intilishidan dalolat beradi.

Mazkur anjuman "BMT Turizm" tashkiloti uchun a'zo davlatlar bilan

ishlashning yangi usullarini o'rganish imkoniyatini berdi, ayniqsa, barqaror turizmga iqtisodiy o'sish katalizatori sifatida e'tibor qaratildi. Muhokamalar iqlim o'zgarishi va sog'liqni saqlash inqirozlari kabi zamonaviy global masalalardan kelib chiqadigan muammolarni hisobga olgan holda moslashuvchan va barqaror turizm sektori strategiyalariga e'tibor qaratishga imkon berdi. Bundan tashqari, biz O'zbekiston va boshqa mamlakatlarga "aqlli" turizm tashabbuslari orqali o'z takliflarini yaxshilash va sayyohlar sifatini oshirish imkonini beruvchi turizm sohasiga texnologiyalar va raqamlashtirishni joriy etishning innovatsion usullari ustida ishlayapmiz.

— Jahon turizmni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari va ularning ikki tomonlama hamkorligimiz uchun ochayotgan yangi imkoniyatlari haqidagi fikrlaringiz bilan o'rtoqlashsangiz.

— Kelajakka nazar tashlaydigan bo'lsak, global turizm ham qiyinchiliklarni, ham favqulodda imkoniyatlarni olib keladigan transformatsiyalar davriga kirmoqda. Rivojlanayotgan tendensiyalardan biri barqaror va mas'uliyatli sayohat variantlariga talab ortib borayotganidir. Bugungi sayohatchilar o'zining atrof-muhitga ta'sirini ko'proq biladi va tabiatni muhofaza qilish hamda madaniy merosni targ'ib qiluvchi joylarni faol ravishda qidirmoqda. Bu O'zbekistonning tabiiy go'zalligi va boy merosidan to'g'ri foydalanish hamda uning o'ziga xosligini shakllantiradigan madaniy qadriyatlarini tushunishga ko'maklashuvchi barqaror turizm modeliga aylanish uchun noyob imkoniyat yaratadi.

Bundan tashqari, raqamli texnologiya-

Shu kunlarda yurtimizdagi "Bir bo'lsak — yagona xalqimiz, birlashsak — Vatanimiz", degan bosh g'oyani mujassam etgan bayram shukhi ko'p millatli xalqimizga cheksiz g'urur, quvonch ulashmoqda. Jamoalarni yangi marralar sari ruhlantirmoqda. Xususan, Navoiy kon-metallurgiya kombinatining ko'p sonli matonatli jamoasi oldiga qo'yilgan vazifalarni ortig'i bilan bajarib, ulug' ayyomni ulkan natijalar bilan qarshi olmoqda.



Quvondiq SANAQULOV,  
"Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi raisi — bosh direktori

Mustaqillik — ulug' ne'mat. Uning qadri-qimmatini, ahamiyatini barchamiz yaxshi bilamiz. Ajdodlarimizning asrlar osha azaliy orzusi bo'lgan istiqbol bugun davlatchilik va tinchligimiz timsoli, huquqlarimiz kafolati, farovonlik hamda kelajagimiz ramzi sifatida xalqimizga baxti hayot, shukronalik ulashib kelmoqda. Ayniqsa, keyingi sakkiz yil Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligidagi yangi O'zbekiston uchun ulkan taraqqiyot davri bo'ldi. Xalqimiz hayotini yaxshilash, iqtisodiyotni rivojlantirish, qo'shni va rivojlangan davlatlar bilan do'stona aloqalarni mustahkamlash, yurtimizning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini oshirish kabi ko'plab yo'nalishlarda katta ijobiy natijalarga erishildi. O'z navbatida, bu marralar bizni dunyoga tanitdi. Jahonda davom etayotgan iqtisodiy inqiroz davrida bunday yuksak taraqqiyotga yuzlanish mamlakatimizda olib borilayotgan oqilona siyosat, keng ko'lami islohotlar, imkoniyatlar sharofati, albatta.

So'nggi yillarda erishilgan bunday ulkan natijalarni Navoiy kon-metallurgiya kombinatida amalga oshirilgan ishlar, qo'lga kiritilgan yutuqlar misolida ham yaqqol ko'rishimiz mumkin. Chunki kon-metallurgiya sanoati dunyo mamlakatlari, shu jumladan, yurtimiz iqtisodiyotida katta ahamiyatga ega asosiy drayver soha hisoblanadi. Shu bois, jahonda butun e'tibor mazkur sohani rivojlantirishga qaratilib, ishlab chiqaruvchilar o'rtasida keskin raqobat kemoqda. O'zbekiston kon-metallurgiya sanoati ham ular safida bo'lishga intilayotgani esa e'tirofirof loyiq.

### Qizilqum kengliklaridagi katta boylik

O'zbekistonda Mendeleyev davriy jadvalidagi barcha elementlar mavjud, foydali qazilmalarning ulkan zaxirasiga ega jannatnomanand yurt hisoblanadi. Oltin, kumush, mis, uran, qo'rg'oshin, molibden, volfram, temir, ko'mir, neft, tabiiy gaz, nodir va noyob metallar, kaliy tuzlar, fosforitlar va boshqa strategik qazilmalar shular jumlasidan.

Ular orasida qimmatbaho metallar alohida ahamiyatga ega. Respublikamizda 60 dan ortiq oltin ma'danli konlar o'rganilgan bo'lib, shundan 40 ga yaqini Qizilqum kengliklarida joylashgan. Bu oltin ma'danli konlar Navoiy kon-metallurgiya kombinatining asosiy xomashyo bazasi bo'lgan obyektlar hisoblanadi.

Bugungi kunda O'zbekiston brendi ostida ishlab chiqarilayotgan "999,9" tamg'ali oltin jahon bozorida o'zining sifati, raqobatbardoshligi hamda tanaxri nisbatan arzonligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Kombinatining dunyodagi boshqa oltin qazib oluvchi kompaniyalardan farqi shuki, bu yirik korxonaga geologiya-qidiruv, ma'danni qazib olish va qayta ishlashdan tortib, jahon bozori talablariga javob bera oladigan tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarishgacha bo'lgan noyob tizimga ega sanoat klasteridir.

Kombinatda asosiy e'tibor mineral xomashyo resurslari zaxirasini yaratish, yuqori likvidli mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish va ularning yangi turlarini jadal rivojlantirish orqali O'zbekiston iqtisodiy taraqqiyotiga hissa qo'shishga qaratilgan. Jumladan, jozibador loyihalar asosida yangi quvvatlarni yaratish, sanoatni modernizatsiya qilish, davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini qisqartirish bo'yicha institutsional va tarkibiy islohotlarni yanada jadallashtirish orqali iqtisodiyotimizga xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish bo'yicha samarali chora-tadbirlarni amalga oshirishga kirishildi. Bunda 2017-yildan e'tiboran O'zbekistonda raqobatbardosh va inkluziv bozor iqtisodiyotini yaratish bo'yicha muhim islohotlar boshlangani qo'l keldi. Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sishga erishish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha ustuvor yo'nalish hamda muhim vazifalar belgilab berilgani soha uchun yangi istiqbollarni ochdi.



# TARAQQIYOTNING YANGI BOSQICHI

## Navoiy kon-metallurgiya kombinatida ro'yobga chiqarilayotgan loyihalarda yaqqol namoyon bo'lmoqda

### Ko'zlangan maqsadga ikki yil avval erishilmoqda

Tajribadan ma'lumki, har bir soha taraqqiyoti va kelajagini belgilashda uzoq yilga mo'ljallangan strategiya, dasturlar muhim o'rin tutadi. Bu amaliyot barcha sohalar qatori mamlakatimiz konchilik va metallurgiya sohasiga ham keng tatbiq etildi. Shu jihatdan davlatimiz rahbarining 2017-yil 1-martdagi qarori bilan tasdiqlangan 2017-2026-yillarda qimmatbaho metallar ishlab chiqarishni ko'paytirish dasturi korxonaga taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi, desak ayni haqiqat. Ushbu dastur asosida keyingi yillarda amalga oshirilgan investitsion loyihalar kombinatning barqaror rivojlanishini ta'minlashga keng imkoniyat va istiqbollarni yaratdi. Natijada Navoiy kon-metallurgiya kombinati oltin ishlab chiqaruvchi kompaniyalar bilan bemaol raqobatlasha oladigan zamonaviy korxonaga aylandi.

2017-2023-yillar mobaynida umumiy qiymati 2,9 milliard dollarlik 23 ta yirik investitsiya loyihasi ishga tushirildi. Buning evaziga kombinatda 2016-yilga nisbatan ma'dan qazib olish hajmi 2,5 barobar, ma'danni qayta ishlash 1,6 barobar, oltin ishlab chiqarish 26 foizga, kumush esa 47 foizga oshdi. Oltin ishlab chiqarish hajmini oshirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlar, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini foydalanishga topshirilishi tufayli kombinat oltin ishlab chiqarish bo'yicha jahonning TOP-10 ta kompaniyalari safida 2016-yildagi 7-o'ringandan 2022-yilda 4-o'ringa ko'tarildi. Shu yillarda 15 ming 243 ta yangi ish o'rni yaratildi. Bu kombinat tarixida keyingi yillarda erishilgan eng katta yutuqdir.

Investitsiya loyihalarini jadallashtirish hisobiga 2017-2026-yillarga mo'ljallangan dastur ijrosini muddatidan ikki yil oldin — 2024-yilda yakunlash rejalashtirilmogda. Bunda korxonada mehnat qilayotgan qariyb 50 mingga yaqin muhandis-texnolog, ishchi-xodimlarning hisssasi bor, albatta. Misol uchun, kombinatda 2016-yilgacha to'rtta gidrometallurgiya zavodi barpo etilgan bo'lsa, keyingi yillarda to'rtta zamonaviy korxonaga — 5-, 6-, 7-gidrometallurgiya zavodlari, 2-gidrometallurgiya zavodining ikkinchi navbati foydalanishga topshirildi.

7-gidrometallurgiya zavodi zamonaviy texnologiyalar asosida texnolog (avval ishlangan) chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha dunyodagi eng yirik korxonalaridan biri hisoblanadi. Texnolog chiqindilarni qayta ishlashning muhim jihatlardan biri ma'danni qazib olish, texnologik maydalash, saralash va tashish xarajatlarining yo'qligidir. Bunday choralar zavodda ishlab chiqariladigan mahsulot tanaxrini sezilarli darajada pasaytirishga olib keldi.

Bu kabi natijalar oltin quymalar sifati bo'yicha Navoiy kon-metallurgiya kombinati ko'p yillardan buyon London qimmatbaho metallar assotsiatsiyasi (LBMA) tomonidan "Optimal yetkazib berish" (Good Delivery) maqomini o'zida saqlab, Tokio sanoat tovarlari birjasi sertifikatiga ega bo'lib kelayotganida ham yaqqol ko'zga tashlanadi.

Kombinat nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyoga sifatlari oltin quymalari bilan tanilgan ko'p tarmoqli sanoat korxonasi hisoblanadi. Ayni paytda bu yerda qimmatbaho metallar bilan birga, mahalliyashtirilgan va import o'rini bosuvchi mahsulotlar, jumladan, dastgohlar, qurilish materiallari, gidrometallurgiya zavodlari, kon-shaxtalar, texnikalar uchun zarur bo'lgan uskunaga, jihoz, metall qurilmalar, ehtiyot qismlar ishlab chiqarish tizimiy yo'lga qo'yilgan. Aytaylik, Navoiy mashinasozlik zavodida ishlab chiqarilayotgan 15 ming turdan ortiq mahalliyashtirilgan va import o'rini bosuvchi mahsulotlarning 97 foizi kombinat ehtiyotiga yo'naltirilmoqda. Bunday noyob mahsulotlar va ehtiyot qismlar korxonaning o'zida ishlab chiqarilayotgani bir maromda ishlab hamda mablag'larni tejashga zamin yaratmoqda.



### Aniq natijalar, zamonaviy texnologiyalar

O'zbekiston iqtisodiyotida kombinat salmoqli ulushga ega. Jumladan, mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 6,3 foizni, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 13,5 foizni, davlat byudjetidagi tushumlar bo'yicha ulushi 16,7 foizni tashkil etadi. Birgina 2023-yilda davlat byudjetiga 38,6 trillion so'mlik to'lovlar amalga oshirildi. Korxonaning iqtisodiy salohiyati ham yildan yilga o'sib bormoqda. 2023-yil yakuniga ko'ra, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 67,5 trillion so'm yoki 5,7 milliard dollari, sof foydasi esa 14,9 trillion so'm yoki 1,3 milliard dollari, rentabellik darajasi 45 foizni tashkil etdi. Shu bilan birga, asosiy faoliyatning samaradorligini ifodalovchi EBITDA ko'rsatkichi bo'yicha rentabellik 61 foizni tashkil etib, yetakchi jahon amaliyoti darajasiga to'la mos keldi.

Jamoamiz 2024-yilda ham marrani baland olgan. Jumladan, joriy yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 86,7 trillion so'mga, byudjetga to'lovlarni 45,4 trillion so'mga, sof foydani 19,9 trillion so'mga yetkazishni mo'ljallaganmiz. Buning uchun imkoniyatlarimiz yetarli. Nasib bo'lsa, yilni mana shunday iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan yakunlab, belgilangan rejalar bajarilishi ta'minlanadi.

Hozirgi shiddatkor zamonda har bir sohada innovatsion texnologiyalarga asoslangan yangiliklar yaratish hayotiy zaruratga aylangan. Soha ekspertlari fikricha, insoniyat kelajakda foydali qazilmalarning ko'plab turlari, jumladan, strategik zaxiralarni to'ldirish muammosiga duch kelishi mumkin. Bu nafaqat qayta tiklanmaydigan foydali qazilmalarning kamayib ketishi, balki yetkazib qilin bo'lgan va unumdorligi past konlar, xususan, ularning no'an'anaviy turlarini ko'proq o'zlashtirish, texnolog chiqindilarni qayta ishlash zarurati bilan bog'liq. Bu esa, o'z-o'zidan, ushbu masalaga innovatsion hamda zamonaviy yondashuv, ilm va ilmiy tadqiqotga zo'r berishni talab etadi.

Kombinat olim hamda mutaxassislarining o'n yillik izlanishlari samarasi bo'lgan "Texnologik va ishlanishi murakkab bo'lgan oltin tarkibli ma'danlarni qayta ishlash hamda o'zlashtirishning kompleks texnologiyalarini ishlab chiqarish va joriy etish" yo'nalishida noyob ishlanma yaratilishi ayni muddao bo'ldi. Chunki ishlanma 3-sonli gidrometallurgiya zavodida joriy etilib, u asosda filtrlash, quritish va kuydirish sexi ishga tushirildi, qo'shimcha oltin ishlab chiqarish imkoniyati yaratildi. Quvonarlisi, ishlanma BMT Butunjahon intellektual mulk tashkilotining oltin medaliga loyiq topildi. Bu kabi yuksak marralar, ulkan buyuqkorlik ishlari faqat ilm, jamoa birdamligi va kuchi bilan qo'lga kiritilganini alohida ta'kidlab o'tish joiz.

### Muruntov mo'jizasi va malakali kadrlar

Korxonada, dunyoga mashhur "Muruntov" koniga to'xtalmaslikning iloji yo'q. "Asr mo'jizasi" deya tan olingan bu konning uzunligi bugun 5,5 kilometr, kengligi 3,4 kilometr va chuqurligi 650 metrga yetib, ma'dan qazib olish bo'yicha xalqaro reytingda yetakchi o'rinlarni egallab kelyapti.

Kombinatda tog'-kon sanoati va geologiya, transport, mexanika, energetika va boshqa muhim yo'nalishlarda AQSHning "Satepillar", Yaponiyaning "Komatsu", "Hitachi Construction Machinery Co. Ltd", Shveysiyaning "Boomer", Rossiyaning "Ijora MZ" kompaniyasi, Germaniyaning "Libherr" kompaniyalari bilan yo'lga qo'yilgan hamkorlik yaxshi samara bermogda.

Kombinatning yana bir yutuqlaridan biri — kadrlarni tayyorlash borasida o'ziga xos maktab yaratilgani bo'ldi. Keyingi yillarda Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti, Geologiya fanlari universiteti va boshqa nufuzli oliyog'ohlarni, texnikumlar bilan yo'lga qo'yilgan samarali hamkorlik yosh kadrlar yetishtirishda katta imkoniyat yaratdi. Buning hisobiga har yili ushbu muassasalardan yuzlab yosh mutaxassislar kombinatga kirib kelmogda. Ularga boshqaruv ishonib topshirilmogda. Ayni paytda kombinatda qariyb barcha gidrometallurgiya zavodlari, kon-shaxtalar va boshqa muhim yo'nalishlarni, zamonaviy texnika va texnologiyalarni 30-40 yoshli kadrlar boshqarmogda.

### Transformatsiya — davr talabi

Bugun yangi O'zbekistonda rivojlantirishning muhim vazifalaridan biri — sanoatning yetakchi tarmoqlari va iqtisodiyotni yanada liberalashtirish, transformatsiya jarayonlarini yakunlashdan iborat. Zero, transformatsiyalash — qulay investitsiya muhitini yaratish, korporativ boshqaruvning zamonaviy usullarini joriy etish, xarajatlarni kamaytirish hisobiga daromadlarni oshirish, davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini kamaytirishni nazarda tutadi. Shu bois, kon-metallurgiya sanoati ushbu islohotlarning asosiy ishtirokchilaridan biriga aylandi. Navoiy kon-metallurgiya kombinatida bu jarayon birinchi navbati bilan joriy etildi. Xususan, xorijiy investorlar va xalqaro moliya bozori ishtirokchilari uchun kombinat faoliyatining shaffofligini ta'minlash maqsadida Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq, kombinatning 2021-2023-yillardagi moliyaviy hisoboti "Deloitte and Touch" xalqaro auditorlik kompaniyasi tomonidan auditdan o'tkazilib, ijobiy xulosalar olindi.



Resurs bazasini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi bilan birgalikda umumiy xarajalarning 90 foizini tashkil etuvchi 30 ta foydali qazilma konlari JORC kodeksi standartlari talablariga muvofiq qayta baholandi. Kombinatinig 6 nafar mutaxassisli mazkur kodeks standartlari bo'yicha hisobotlarni tayyorlashga Avstraliya konchilik va metallurgiya instituti (AusIMM) a'zolisiga qabul qilindi.

Iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlariga xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish maqsadida 2020-yildan boshlab xorijiy banklarning kreditlari hisobidan kombinat Investitsiya dasturini moliyalashtirish tizimi joriy etildi. 2020-2023-yillar davomida kombinat tomonidan davlat kafolatsiz 2,5 milliard dollar miqdorida to'g'ridan to'g'ri xorijiy kreditlar jalb qilindi.

2022-yilda "JP Morgan & Chase", "Citi", "Societe Generale", "Credit Suisse", "ICBC Standard", "Halyk Bank" kabi yetakchi xalqaro banklarning 5-yil muddatga 1,2 milliard AQSH dollari miqdorida uzoq muddatli sindikatlangan kreditlar jalb qilindi. Mablag'lar umumiy korporativ maqsadlar va investitsiya dasturini moliyalashtirishga yo'naltirildi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, yaqinda "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ "Fitch Ratings" xalqaro reyting agentligi tomonidan ilk marotaba "Barqaror" prognozi bilan "BB-" darajasidagi uzoq muddatli kredit reytingini oldi. Ushbu baho bizning strategik rejalarimiz va operatsion samaradorligimizni mustahkamlaydi. Kelajakda o'sish uchun mustahkam poydevor yaratadi. Reyting nafaqat kapital bozorlaridagi mavqimimizni oshiradi, balki barqaror va mas'uliyatli qazib olishga sodiqligimizni ham tasdiqlaydi. Hamkorlik va yangi moliyaviy vositalar, shu jumladan, qimmatli qog'ozlarni chiqarish imkoniyatini beradi.

Bundan avvalroq kombinatimizning mavqei "S&P Global Ratings" xalqaro agentligi reytingida ham tasdiqlangan edi. Mazkur agentlik tahlilchilarining fikriga ko'ra, "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ soha korxonalariga nisbatan ishlab chiqarish tamaraxining arzonligi, eng yirik bo'lgan "Muruntov" konidagi uzoq vaqt davomida foydalanish imkonligi, foydalaning yuqori marjasi va past qarz yukini saqlab turishi bilan ajralib turadi. Kombinatinig 2024-yil yakunlari bo'yicha ishlab chiqarish quvvatini 2017-yilga nisbatan 30 foizga oshirish imkonini beruvchi Investitsiya dasturini belgilangan muddatidan ikki yil oldin yakunlamogda.

Bir vaqtda ikkita nufuzli xalqaro agentlik mustaqil ravishda kredit reytingini barqaror prognoz bilan "BB-" darajasida tasdiqlagan biz uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bu moliyaviy barqarorlikdan dalolat berib, xalqaro kapital bozoriga chiqishi orqali mavjud moliyaviy vositalarni diversifikatsiya qilish imkoniyatini yaratadi. Bir so'z bilan aytganda, bu reyting kombinatning jahondagi yetakchi oltin qazib oluvchi kompaniyalardan biri sifatida mustahkam mavqei aks ettiradi.

Hozirgi kunda esa xorijiy investorlar va xalqaro moliya bozori ishtirokchilari uchun kombinat faoliyatining shaffofligini ta'minlash maqsadida korporativ shroffoligatsiyalar chiqarish va aksiyalarni "IPO" asosida joylashtirish orqali qo'shimcha moliyaviy resurslarni jalb etish choralar ko'riyapti.

Kombinatda korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish yo'nalishida konsalting kompaniyasi bilan birgalikda kadrlar siyosatini yanada takomillashtirishning ustuvor yo'nalishi ishlab chiqildi. Faoliyat samaradorligining asosiy ko'rsatkichlari tizimi (KPI) hamda mehnatga haq to'lash va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning yangi mexanizmi joriy etildi.

Bu ishlar, albatta, taraqqiyot sari yuzlangan Navoiy kon-metallurgiya kombinati uchun to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish, xalqaro fond bozorida faol ishtirok etish hisobiga ishlab chiqarishni kengaytirishga qaratilgan investitsiya loyihalarni amalga oshirishni jadallashtirish, yangi ish o'rinlari yaratish va daromadlar ko'paytirishga xizmat qiladi.

### Investitsiya loyihalarining ahamiyati

Yana shuni alohida ta'kidlash joizki, korxonamiz faoliyatida investitsion loyihalar muhim o'rin egallaydi. Jumladan, 2024-yilda Investitsiya dasturi doirasida umumiy qiymati 1 milliard AQSH dollari bo'lgan 11 ta loyiha amalga oshirilib rejalashtirilgan. Shu yilning birinchi yarim yiliga ushbu yo'nalishda 363,5 million dollarlik mablag'lar o'zlashtirildi. Ayni paytda esa barcha loyihalar bo'yicha ishlar davom etmoqda.

3-gidrometallurgiya zavodida 7-tegirmon blokini ishga tushirdik. Ya'ni "Kokpata va Dovgystov oltin konlarida ma'dan qazib olish (III

navbati)" investitsiya loyihasi ishlab chiqarish hajmini oshirishda katta ahamiyatga ega bo'lib, uning umumiy qiymati 319,8 million dollarni tashkil etadi. Ayni paytda ushbu loyihani amalga oshirishga qaratilgan keng ko'lami ishlar yuqori sur'atlarda davom etmoqda. Jumladan, eng ulug', eng aziz bayramga munosib sovg'a sifatida yaqinda 3-gidrometallurgiya zavodida barpo etilgan, yiliga 1 million tonna oltin tarkibli ma'danni qayta ishlash quvvatiga ega yangi tegirmon bloki ishga tushirildi. Buning hisobiga zavodda tegirmon bloklari soni 7 taga yetdi. Ma'lumot uchun aytilish mumkin, hozirgi kunda zavodning ma'danni yillik qayta ishlash quvvati 8 million tonnadan ortiq bo'lib, yangi tegirmon blokini ishga tushirish hisobiga bu ko'rsatkich 9 million tonnadan oshadi.

Kelgusida flotatsiya, biooksidlash, filtrlash, quritish va kuydirish sexlarini kengaytirish ham ko'zda tutilgan. Ta'kidlash joizki, mazkur tegirmon bloki uchun zarur asbob-uskuna va ehtiyot qismlar mahalliyashtirilib, kombinatning Navoiy mashinasozlik zavodi va Shimoliy kon boshqarmasi bo'linmalarida tayyorlandi. Qurilish ishlari Zarafshon qurilish boshqarmasi tomonidan amalga oshirildi.

Bugungi kunda "Muruntov" konida Shimoliy-sharqiy davriy oqim texnologiyasi majmuasi hamda 2-konveyer liniyasini kengaytirish bo'yicha qurilish ishlari olib borilmogda. Shimoliy-sharqiy davriy oqim texnologiyasi majmuasida ma'dan tashish liniyasini kengaytirishning umumiy loyiha qiymati 104,4 milliard so'mni tashkil etadi. Hozir bu bo'yicha yangi konveyer, elektr liniyalarini qurish, ag'darma konveyer liniyasini 1,1 ming metrga uzaytirish va boshqa yo'nalishlarda ishlar davom etmoqda. Bu loyiha kelgusida tog' jinslarini tashish hajmini yiliga 15 million met kubga oshiradi. Xuddi shunday 2-konveyer liniyasini kengaytirishning umumiy loyiha qiymati 194,4 milliard so'mdan iborat. Shu paytgacha foydalanishda bo'lgan 1877,4 metrik liniyaga qo'shimcha tarzda ming metrdan ziyod yangi liniyani qurish ko'zda tutilgan. Loyiha to'liq quvvatda ishga tushirilganda yiliga 12 million met kub tog' jinslarini tashish imkoniyati yaratiladi.

Tog' jinslarini liniyalar (lenta orqali tashish mexanizmi) orqali tashish eng qulay, samarali va tejadorlik bilan amalga oshirilgan. Bu usul, hech shubhasiz, ish samaradorligini oshirish bilan birga, ishchi kuchini, vaqt, transport xarajatlarni, yoqilg'i-moylash materiallarini tejaydi.

E'tibori jihatidan, konveyer liniyalarini kengaytirish Navoiy mashinasozlik zavodida to'liq mahalliyashtirilgan holda tayyorlanmogda. Kombinatt mutaxassislari aqad-zakovati va izlanishlari orqali mana shunday iqtisodiy samaradorlik keltiruvchi qo'shimcha imkoniyatlar izlab topmogda.

Shu o'rinda yana bir muhim buyuqkorlik namunasi — umumiy qiymati 235,6 million AQSH dollarlik "Zarmitan" konining quyi gorizontlarini o'zlashtirish loyihasiga to'xtalib o'tsak. Gap shundaki, O'zbekiston konchilik tarixida ilk marotaba Chexiyaning "Mine Construction Alliance s.r.o." kompaniyasi bilan hamkorlikda Qo'shrabot tumanidagi "Zarmitan" sanoat maydonining "Skjipil" va "Bosh" shaxtalarida tik konlar qurilayotgan. Hozir ushbu shaxtalar chuqurligi ming metrga yetdi. Ya'ni biz Markaziy Osiyoda birinchi marta shunga erishdik. Mutaxassislar fikriga ko'ra, joriy yilning oxiriga qadar loyihada ko'zda tutilgan ishlar to'liq yakunlanib, ikkala obyekt ham foydalanishga topshirildi.

Loyiha doirasida "Skjipil" shaxtasining yillik unumdorligi 1,4 million tonna oltin tarkibli ma'danni yer ostidan yer yuzasigacha olib chiqishga mo'ljallangan va u 4-gidrometallurgiya zavodiga qayta ishlash uchun yetkazib beriladi. "Bosh" shaxtasining asosiy vazifasi ishchi-xodimlar va jihozlarni shaxtaga tushirib-chiqarish, shaxtadan yer osti suvlarini yer yuzasiga haydash, shaxtani toza havo oqimi bilan ta'minlash hamda shaxtadan tog' jinslarini chiqarish hisoblanadi.

Kombinat faoliyatida bu kabi loyihalarni amalga oshirish konlarni o'zlashtirish, qimmatbaho metallar qazib olish va qayta ishlash hajmini oshirish hamda yangi ish o'rinlarini yaratishga xizmat qiladi.

Albatta, natijalar ko'zlangan marralar emas. "O'zbekiston — 2030" strategiyasida mis ishlab chiqarishni 3,5 barobar, oltinni 1,5 barobar, kumushni 3 barobar, uranni 3 barobar oshirish belgilangan. Shundan kelib chiqib, Navoiy kon-metallurgiya kombinatida 2024-2030-yillar uchun strategik rivojlantirish dasturi tasdiqlangan.

Dunyoda keskin raqobat kechayotgan hozirgi davrda peshqadamlar safida bo'lish, ishlab chiqarish sur'atini oshirish qiyin va eng murakkab jarayon. Bir joyda to'xtab qolgan, kelajak yo'lini tanlay olmagani har qanday korxonaga yutqazadi. Biz eng ilg'or texnika va texnologiyalarni joriy etib, jahon bozoriga raqobatbardosh, sifatli mahsulot ishlab chiqarishda bor kuch, shijoat va bilimimizni safarbar etishda davom etaveramiz.



31-avgust — Qatag'on qurbonlarini yod etish kuni

1938-yil yanvar. Bekobodning izg'irini shamoli ko'z ochirmaydi. Xovos stansiyasida to'xtagan Samarqand — Toshkent poyezdiga chiqish uchun shoshayotgan olomon orasida o'ttiz besh-qirq yoshlardagi o'rta bo'lyi bir yigit ham bor. U nima qilib bo'lsa ham poyezdga chiqib olishga urinar, lekin odamlar tamburga oyoq qo'yishiga yo'l qo'ymasdi. Nihoyat orqasiga to'rva ortmoqlab olgan ko'yi bir amallab vagonga ilashdi.



Abdurahmon MUSTAFOQULOV, jurnalist

Tumanning olis Kirov kolxozidagi Namington qishlog'idan Xovosgacha o'ttiz besh chaqirim yo'lni kechasi bilan piyoda bosib kelgan yigitning yuziga g'am ko'lanka solgan. Ichkarida joy yo'qligidan tumburning bir chetiga cho'ka qolgan Mustafoulni poyezdning bir maromdagi harakati eltdi. Lekin uyqu qayoqda? Yuragi to'la g'am! Sakiz-o'n yildirki, uning oilasi ta'qib ostida. Kollektivlashtirish, quloq qatag'oni oilasini parokanda qildi, otasidan ayirdi. Otasi Shernazarovning mol-mulki tortib olindi. O'zlar esa quvg'in qilindi. Mana, hozir ham akasi Hotam Shernazarovning daragini eshitish uchun Toshkentga boryapti. Uni olti oy oldin yarim kechada noma'lum shaxslar qo'lini qayirib olib ketgan. Shundan beri akasini izlab bormagan joyi qolmadi. Lekin jigarbandning daragi oradan sakson olti yil o'tgach chiqishini hali bilmasdi! Faqat ko'nglida zulmat abadiy emasligiga, quyosh albatta bosh ko'tarishiga, rutub tarqashiga, adolat jaholatni parchalab tashlashiga umid qilardi, xolos!

Umid qaldirg'ochi

2024-yil 19-iyulda Prezidentimizning "Siyosiy qatag'on qurboni bo'lgan yurtodoshlarimiz hayoti va faoliyatini o'rganish, targ'ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish to'g'risida"gi qarori e'lon qilindi. Milliy o'zligimiz, davlatchiligimiz, ma'naviy qadriyatlarimizni saqlab qolish yo'lida qurbon bo'lgan fidoyi shaxslar xotirasini abadiylashtirishga qaratilgan ushbu qaror tom ma'noda tarixiy adolat tantanasi bo'ldi. Undagi "O'zarxiv" agentligi Davlat xavfsizlik xizmati bilan birgalikda davlat arxivlarida saqlanayotgan qatag'on qurbonlari va jadidlik harakati namoyandalarga oid muayyan arxiv hujjatlarini belgilangan tartibda maxfiylikdan chiqarish choralarini ko'rsin" degan band taqdir taqozosi bilan o'tgan asrning elliinchinchi yillarida Sirdaryo viloyatining cho'l tumanlariga ko'chib kelgan Shernazarovlar oilasi a'zolari qalbidan umid uchqunlarini uyg'otdi. Gap shundaki, o'tgan asrning 30-yillarida qatag'onga uchragan Shernazar ota quloq qilinib, mol-mulki musodara bo'lgan. Bu oilaning to'ng'ich a'zosi Hotam Shernazarov esa 1937-1938-yillarda qamoqqa olingan va to'g'risida hech qanday rasmiy ma'lumot olishning iloji bo'lmay



Sakson olti yil KUTILGAN XABAR

yoxud tiklangan adolat tantanasi

kelayotgan edi. Mustabid tuzum davrida Hotam Shernazarovning ukasi Mustafouq Shernazarov akasining daragini izlab, bormagan joyi, kirmagan idorasi qolmagan, xalq dushmani sifatida hamma joydan haydab chiqarilgan. Shu taxlit o'ttiz besh yil urindi. Oqibat o'tgan asrning yetmishinchi yillarida akasining daragini topishni o'g'li Abdunabi Mustafoulovga vasiyat qilgan ko'yi armon bilan olamdan o'tdi. To'qsoninchi yillarga yaqin qilingan urinish sal naf bergandek bo'ldi. Jurnalist Ahmadali Shernazarovning murojaati rad etilib, turli bahonalar bilan Davlat xavfsizlik qo'mitasining arxividagi maxfiy ma'lumotlarni ochiqlashdan bosh tortishadi. 2014-yilda Abdunabi Mustafoulov ham olamdan o'tadi. Adolati tiklash kelgusi avlodlar zimmasiga yuklanadi. Prezidentimizning ushbu qarori qabul qilingach, biror xabar topish umidida "Shahidlar xotirasi" jamoatchilik fondiga murojaat qilindi. Yettinchi avgust kuni fondning mas'ul xodimi murojaatga asosan, Hotam Shernazarovning jinoyat ishi tafsilotlari aniqlanganini aytib aloqaga chiqadi. Umid qaldirg'ochi qanot yoza boshladi.

Zulmatning boshlanishi

Yunusobodagi "Shahidlar xotirasi" jamoatchilik fondiga tomon yo'l olar ekanmiz, bobolar, momolarning guvohligi asosida eshitganimiz — o'sha kunlarning voqealari ko'z o'ngimizda gavdalandi. O'tgan asr boshlarida Shernazar ota Sirdaryo viloyati Xovos tumanidagi So'loqli qishlog'ining boy-badavlat kishisi sifatida yaxshigina nom qozongan edi. Uning bir necha yuz gektar yeri, chorvasi, va imoratlari bo'lgani

tuzila boshlanadi. O'sha paytlarda sersuv, atrofdagi yerlari unumdor bo'lgan bu hududlar mustabidlarning o'y-xayolini o'g'irlagan edi. Kolxozga ko'ngilli ravishda jalb qilish shunchaki targ'ibot, niqob ekani tezda ayon bo'ladi. Namington va uning etagidagi So'loqli kabi bir qancha qishloqlar tarkibida Kirov nomidagi kolxoz tuziladi. Yaqin atrofdagi qishloqlar aholisiga qarashli ming gektarga yaqin yer kolxozga olinadi. Shuningdek, aholining ot, sigir, ho'kiz, qo'y kabi chorvalari, omoch, ketmon kabi qurollari ham musodara qilinadi. Muqaddam o'z oilasi ehtiyojlari uchun erkin mehnat qilib, hosildan o'zi bahra olgan aholi amalda bor-budidan ayriladi. Buning ustiga majburiy mehnat shakli paydo bo'ladi. Aholi yoppasiga dalaga ishga olib chiqilib, qat'iy norma asosida ishlatila boshlanadi. Total tuzumga xos bunday tartibdan ko'pchilik norozi bo'ladi. Lekin repressiv tuzum bunday shaxslarni qat'iy yo'q qilish yo'lidan boradi. 1930-yil 30-yanvarda VKP(b) MK Siyosiy byurosining "Yoppasiga kollektivlashtirayotgan rayonlarda quloq xo'jaliklarini tugatish to'g'risida"gi qarori qabul qilinishi mana shunday mudhish jinoyatlarga amalda fatvo beradi. Barcha joylarda bo'lgani singari Kirov kolxozida ham ommaviy qatag'onlar, siyosiy ta'qiblar kuchayadi. Ayniqsa, Shernazarovlar oilasi VCHK-NKVD-OGPU nazariya tushib qoladi. Oila a'zolari orasida o'qimishli shaxslar borligi, jamiyatda mavjei baland ekani ularning kelgusi rejalariga mos emasdi. Boisi, elning eng oldi shaxslarini yo'q qilish orqali



Hibs va ta'qib


Ortga qaytgan Hotam to'rt, Murtazoqlu ikki farzandini sog'omon ko'rganiga shukr qiladi. Ular tinch hayotga qaytadi. Bu paytga kelib 44 yoshda bo'lgan Hotam Shernazarov So'loqli qishlog'ida masjidda bir qancha odamlar bilan tinchgina ibodat qilib yuradi. O'sha paytda yashagan odamlardan kelgan xotiralarga ko'ra, Hotam Shernazarov nihoyatda o'qimishli, bilimdon, taraqqiyparvar, shu bilan birga, milliy o'zlikka, ma'naviy qadriyatlariga sadoqatli shaxs bo'lgan. U bir qancha kitob yozgan. Oilaning parokanda qilinishi, otanasining siyosiy ta'qibga uchrab bevaqt olamdan o'tishini unutilmagan edi. Millatning qullik zanjiriga solinayotgani, din ta'qib qilinayotgani, milliy o'zlik eskilik sarqiti sifatida ko'rilayotgani uni qoniqtirmasdi. Uning o'rninga sovet tashviqoti tomonidan amalda boshqa millat madaniyati, tarixiy qadriyatlarini ulug'lash, ibo-hayoga zid urflar singdirilayotgani ko'pchilik qatori Hotam Shernazarovning ham nafratiga sabab bo'layotgandi. Afuski, u ham boshqalar qatori chorasiz edi.

O'sha kunlarda NKVD agenti katta og'alariga Hotam Shernazarovning "Oldin hosilning hammasi o'zimizda qolardi, kolxoz bo'lgach, yig'ilgan g'allaning barchasi olib ketilyapti, bola-chaqamizni qanday boqamiz", degan gapini yetkazadi. 1937-yil kuzining rutubati kechalaridan birida Shernazarovlar xonadoniga egniga uzun charam kiyimlar kiygan, zahil yuzli to'rt-besh kimsa bostirib kiradi. Uy tintuv qilinib, qo'llariga ilingan narsalarni oladi. Hotam Shernazarov bandi qilib olib ketiladi. Uning ortidan Xudoyor, Ortig'oy, Buvoysa kabi farzandlari chitillab yig'lab qoladi. Uch yoshli qizalog'li Yanglish nima bo'layotganini tushunmay, bir burchakda ko'zlarini alang-jalang o'tiradi. Hotam Shernazarov olib ketilgach, uning oilasi bilan aloqa qilish barchaga taqiqlanadi. Farzandlar majburiy mehnatga jalb qilinadi. Uning ukalari Murtazoqlu, Mustafouq ham ta'qibga uchraydi.

Uyimizga har kuni odamlar kelib, onamni qamchilab ketardi, — deb eslaydi Yanglish Shernazarova. — Onam bizni molxonaga oxuriga yashirib, ustimizni xashak bilan berkitardi. Notanish kimsalar bizni izlab, o'tkir uchli tayoq tiqib ko'rardi. Bunday tayoq necha bor biqinimizni teshgudek bo'lib botsa ham qo'rqqanimizdan ovoz chiqarmasdik. Agar topib olishganida bolalar uyiga yuborish yoki oilamiz bilan yana surgun qilinimshimiz ehtimoli bo'lgan. Mana shunday xo'rlik va zulmdan oila a'zolari birin-ketin qirila boshlaydi. Shu tariqa yetim qolgan Hotam va Murtazoqlu qatag'on farzandlari mulqat begona shaxslar qo'liga tushib qoladi. Ayrimlari bevaqt o'lib ketadi. Ayrimlari esa yaxshi insonlar qo'lida yetimlikda katta bo'ladi. Ular o'z o'tmishini, asl familiyasini yashirib yashashga mahkum edi.

Mustafouqlning taqdiri

Ota-onasi, akalalaridan ayrilgan Mustafouq Shernazarov ham ta'qibda yashashga majbur bo'ladi. Bu xokisor inson ta'qib sabab akalalarining farzandlarini o'z qar-amog'iga ololmaydi. Ularni begona oilalar panohida saqlashga majbur bo'ladi. U imkon topishi bilan Toshkentga borib, akasining daragini topishga harakat qilardi. Lekin hech narsaga erisholmay qaytib kelardi. Xalq dushmanining ukasi sifatida har eshikdan haydalar,



Abadiy adolat maskanida

Anhor bo'yidagi "Shahidlar xotirasi" xiyoboni tinch-odada, gullarga, yam-yashil mayسالarga burkangan go'zal maskan. Tarixiy manbalarda bu yerda qatag'on yillari millatimizning yuzlab o'g'lonlari otib tashlangani aytiladi. Xiyobon oralar borar ekanman, amakim Hotam Shernazarovning xoki ham shu yerda yotganman deb tuproqqa avaylab qadam bosaman. "Shahidlar xotirasi" jamoatchilik fondi bosh ilmiy



hamma joyda "Hotam Shernazarov haqida hech narsa ma'lum emas", deya bir xil javob berishardi. Toshkentda haftalab qolib ketar, ko'chada, perronlarda tunashga majbur bo'lardi. Akasiga atab olib borgan non, turshaklarni qaytishda beva-bechoralarga hadya qilardi. Qishloqqa qaytgach esa yashirincha Ro'zixon, Yanglish, Buvoysa, Ortig'oyning holidan xabar olib turardi. — O'sha paytda Namington qishlog'ilik Eshonqul degan shaxs Toshurmudan qaytib keladi, — deb eslaydi Jizzax viloyati Yangiobod



tumani faxriysi, marhum Ahmadali Qo'qonboyev. — U turmada Hotamni qo'lini qayirib olib ketishayotganini ko'rganini, "Eshonqul, meni otishga hukm qilishdi, uydagilarga aytib qo'y", degan gapini yetkazadi. Shu tariqa mulla Hotamning tirik qaytishiga bo'lgan umid batamom so'nadi. Endi qatag'onchilar Mustafouqlga kun bermasdi. Qirqinchi yillarda Zomin tumanining yigirma chaqirimcha naridagi Qorapchi qishlog'iga ko'chib ketishga majbur bo'ladi. Bu yerda u Axchaxon qishloq kengashiga qorovul vazifasiga ishga joylashadi va Halima degan ayolga uylanib, bir necha farzandli bo'ladi. Lekin bu yerda ham oson bo'lmaydi va ellinchinchi yillarda oilasini olib, Mirzacho'ga ko'chib keladi. Nihoyat hozirgi Shirin shahri Nurobod mahallasida o'troqlashib qoladi.

xodimi Bahrom Irzayev meni xush kutib oldi. Hayajonimni yashira olmayman. Hozir men eshitadigan xabarni ikkita avlod bilolmay, armonda o'tib ketgan.

— Sirdaryo viloyati Xovos tumani So'loqli qishlog'ida yashagan Hotam Shernazarovga nisbatan kontrrevolyutsion targ'ibot qilganligi aybi qo'yilgan, — deydi Bahromjon. — U tergov paytida aybini tan olmagan. Uning jinoyat ishida quloq, imom-ruhoniyy ekani ko'rsatilgan. Bir necha oy davom etgan tergov yakunlanib, 1937-yil fevralda ish "uchlik" hukmiga o'tkazilgan. Lekin sud bo'lmagan. Hotam Shernazarov tergov paytida vafot etgani sabab ish yopilgan.

Hammasi tushunarli edi. Katta ehtimol bilan "quloq va ruhoniyy kimsa, yot sinf vakili"ga jismoniy va ruhiy ta'qib o'tkazilgan. Shuning uchun ham u "uchlik" changaliga yetib bormagan.

Oqqan daryo oqaveradi

Arslonlar yurtida arslon ulg'ayar, degan naql bor. Bosqinchi tuzum xalqimizning asl farzandlarini yo'q qilishga ko'p urindi. Ehtimol, o'sha vaqtda bobolarimiz jismonan mavh etilgandir, ammo xalqimiz o'zligini, asl naslini saqlay oldi. Masalan, ozdlik kurashchisi bo'lgan Hotam Shernazarov,

Mustafouq Shernazarov avlodlarining barchasi o'qimishli, ziyoli, el orasida katta obro'ga ega rahbar insonlarga aylandi. Uning to'ng'ich o'g'li Abdunabi Mustafoulov yetuk rahbar, ustoz-muallim, Ahmadali Shernazarov ustoz-jurnalist sifatida katta shuhratga erishdi. Ular fidokorona mehnatlarini uchun orden-medallarga sazovor bo'ldi. Hozir son-sanoqsiz nabiralari arslon o'nlab vrach, huquqshunos, o'qituvchi, jurnalist, muhandis, dasturchi yetishib chiqqan. Jamiyatning eng oldi vakillari sifatida ular sog'liqni saqlash, ta'lim, sud-huquq organlari, OAV, axborot texnologiyalari, energetika kabi sohalarida faoliyat ko'rsatyapti. Ular o'z vatani, milliy o'zligi bilan cheksiz faxrlanadi! Qatag'onga uchragan Shernazar bobo, ozdlik uchun kurashda shahid ketgan Hotam bobo tomonidan qo'yilgan tamal toshi ustiga egzulik g'ishtini terishni o'zlarining burchi deb biladi!

Shernazar bobo avlodlari istiqol qanday ne'mat ekanini o'z taqdiri orqali yaxshi anglaydi. Boshqalarni ham uni asrab-avaylash, shunga munosib bo'lishga chaqiradi. Ha, adolat tiklanayotgan O'zbekistonda "Bir bo'lsak — yagona xalqimiz, birlashsak — Vatanimiz!" degan g'oya atrofida jipslashimshimiz shart!

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "Kolorpak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 2954. 41126 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"Kolorpak" MCHJ bosmaxonasi chop etildi. Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060. Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy. Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Azizbek Yusupov Musahhih: Malohat Mingboyeva Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 85-uy